

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

*2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1-iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022- yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

34923



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

4709



Oilaviy korxonona

196



Unitar korxonona

6148



Xususiy korxonona

48



Aksiyadorlik jamiyati


303



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021 ■ 2022


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-may oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-may oylarida, birlikda)






Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1-iyun holatiga ko‘ra, birlikda)

Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **0,7** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

■ O‘rmon xo‘jaligi

■ Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,9** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



452

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

8 735

Ishlab chiqarish sanoati

54

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

178


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 9 419 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 %ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 4,6 %ga (jami sanoatdagi ulushi 92,7 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 1,7 %ga (jami sanoatdagi ulushi 4,8 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 15,6 %ga kamaygan (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 6,8 %ga (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) kamaygan.



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,5** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




4,4 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



6,8 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **14,1** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 929 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,5 %ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 6,4 %ga (jami qurilishdagi ulushi 53,0 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 26,3 %ga (jami qurilishdagi ulushi 9,3 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 2,2 %ga (jami qurilishdagi ulushi 37,6 %) kamayishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 15 451 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,9 %ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 10,1 %ga (jami savdodagi ulushi 67,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 20,7 %ga (jami savdodagi ulushi 25,6 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 14,6 %ga (jami savdodagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.



- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

825



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

28



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

31



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



371

yashash bo'yicha xizmatlar



3 470

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2022- yil 1-iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 3 841 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,9 %ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 5,3 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,3 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 11,7 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,7 %) o'sishidir.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- iyun holatiga ko'ra 5197 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 543 taga yoki 11,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 709 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 477 taga yoki 11,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 365 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 150 taga yoki 29,1 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- iyun holatiga ko'ra 37 895 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2647 taga yoki 7,5 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 34 923 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 379 taga yoki 10,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2474 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 449 taga yoki 15,4 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, 1 603 tani tashkil etib, ulardan 1 517 tasi yoki 94,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 104 taga yoki 6,9 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 82 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)



	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent viloyati	1603	735	868
Oqqo'rg'on t.	22	7	15
Ohangaron t.	87	34	53
Bekobod t.	10	6	4
Bo'stonliq t.	72	37	35
Bo'ka t.	14	5	9
Quyichirchiq t.	54	27	27
Zangiota t.	202	84	118
Yuqorichirchiq t.	122	54	68
Qibray t.	173	77	96
Parkent t.	25	11	14
Piskent t.	24	11	13
O'rta Chirchiq t.	107	40	67
Chinoz t.	30	13	17
Yangiyo'l t.	95	35	60
Toshkent t.	91	50	41
Nurafshon sh.	71	30	41
Olmaliq sh.	54	16	38
Angren sh.	109	74	35
Bekobod sh.	29	18	11
Ohangaron sh.	46	23	23
Chirchiq sh.	99	60	39
Yangiyo'l sh.	67	23	44

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.: (71) 202-86-83